

Respublikamizda termitlarning tarqalishi, zarari va termitlarga qarshi kurash ishlariga bag'ishlangan brifing o'tkazildi

Bugun, 29-aprel kuni Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida Fanlar akademiyasi Axborot xizmati tomonidan Zoologiya instituti direktori Baxtiyor Xolmatov ishtirokida brifing o'tkazildi. Unda respublikamizda termitlarning tarqalishi, zarari va termitlarga qarshi kurash ishlari haqida ma'lumot berildi.



Bugungi kunda dunyo miqyosida iqlim o'zgarishlarining keskinlashuvi, havo haroratining ko'tarilishi hamda antropogen omillarning avj olishi natijasida termitlar o'z tabiiy yashash makonlaridan aholi turar joylari, tarixiy madaniy obidalar, strategik ahamiyatga ega obyekt hududlariga ko'chib, ularning yog'och konstruktsiya qurilmalariga jiddiy zarar keltirmoqda.

Termitlar masalasi dunyo miqyosidagi yirik muammolardan hisoblanib, ular tufayli bino va inshootlarga juda katta zarar yetmoqda. Hozirgi ma'lumotlarga ko'ra, termitlarning har yili keltiradigan zarari dunyo miqyosida 40 milliard AQSh dollarini tashkil qilmoqda.

Bugungi kunda respublikamiz hududida aholi turar joylarini, tarixiy-madaniy obidalar, ijtimoiy soha obyektlari va inshootlardagi yog'och-taxta qurilish materiallariga hamda xalqimizning bir necha asrlardan beri avloddan avlodga o'tib kelayotgan noyob xalq amaliy san'ati durdonalari hisoblangan yog'och o'ymakorligi san'at ishlanmalarini termitlar kuchli zararlab, misli ko'rilmagan darajada zarar keltirmoqda va favqulotda holatlar kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

Dunyoda termitlarning 3000 ga yaqin turi mavjud bo'lib, O'zbekistonda termitlarning 2 turi Turkiston termiti *Anacanthotermes turkestanicus* Jacobs., 1904 hamda katta Kaspiy orti termiti *Anacanthotermes ahngerianus* Jacobs., 1904 turlari respublikamizning deyarli barcha viloyat hududlarida keng tarqalgan.

Respublikamizda termitlarning zararli faoliyati yuzasidan olib borilgan monitoring ishlaridan so'ngi ma'lumotlarga ko'ra respublika bo'yicha:

Aholi turar joylarida – 18 958 ta holat;

Madaniy-tarixiy obidalarda – 46 ta holat;

Strategik ahamiyatga ega bo'lgan obyektlarda-15 ta holat;

Ijtimoiy soha ob'ektlarida – 98 ta holat;

Dala va cho'l zonalari, qabristonlar va boshqa ochiq joylarda – 1082 ga maydonlar termitlarning mavjudligi aniqlangan.

Bunda, Qoraqalpog'iston respublikasi, Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo, Navoiy, Samarqand viloyatlari termitlar tomonidan kuchli zararlangan hududlar hisoblanadi.

Madaniy-tarixiy obyektlarda termitlarning zarari xususida to'xtalib o'tadigan bo'lsak:

Misol uchun, bugungi kunda respublikamiz hududidagi Butunjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan, YuNESKO muhofazasidagi "Ichan-Qal'a" tarixiy yodgorlik majmuyidagi 33 ta tarixiy obidaning yog'och o'ymakorligi ishlanmalariga termitlar jiddiy darajada zarar yetkazmoqda. Jumladan, Juma masjid muzeyi, Paxlavon Mahmud maqbarasi, Muhammad Inoq va boshqalar termitlardan kuchli zararlangan.

Termiz tumanidagi I-III asrlarga tegishli Buddaviylik ziyoratgohlaridan biri Fayoztepa obidasi hududining 100% termitlar bilan zararlangan;

Surxondaryodagi Al Xakim At-Termiziy, Qashqadaryodagi Xazrati Imom masjidi, Navoiydagi Imom Xasan-Xusan ziyoratgohi va Qoraqalpog'iston Respublikasidagi Mizdaxkan kompleksi tarixiy obidalarida termitlarning zararli faoliyati qayd etilgan.

Hukumatimiz tomonidan termitlarning zararli faoliyatini bartaraf etish va termitlarga qarshi kurash choralarini izchil yo'lga qo'yish maqsadida Vazirlar Mahkamasining Qaror va Farmoyishlari qabul qilingan. Jumladan:

Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 2-fevraldagi, "Respublikada termitlarga qarshi kurashish ishlarini jadallashtirish va ularning zararini bartaraf qilish to'g'risida"gi 27-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti huzurida "Respublika termitlarga qarshi kurashish markazi" davlat muassasi tashkil etilgan.

"Respublika termitlarga qarshi kurashish Markazi" faoliyati davomida termitlarga qarshi kurashish vositalarini yaratish va usullarini ishlab chiqish borasida ko'plab ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, bugungi kunda ham Markaz tomonidan termitlarga qarshi samarali vositalardan biri bo'lgan zaharli yem-xo'raklarning yangi sanoat namunalari yaratilib, amaliyotga keng joriy etilmoqda.

Markaz tomonidan bugungi kungacha 180 000 ga yaqin termitlarga qarshi zaxarli yem-xo'raklar ishlab chiqarilgan bo'lib, Shunda:

Aholi turar joylariga – 160 000;

Madaniy-tarixiy obidalarda – 10 000;

Ijtimoiy soha ob'ektlarida – 7 500;

Strategik ahamiyatga ega bo'lgan obyektlarda- 2300 ga yaqin yem-xo'raklar o'rnatildi va ushbu o'rnatilgan xududlarda termitlarning zarari bartaraf etildi. (2014-2021 yy.)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xorazm viloyati Xiva shahrining "Mevaston", "Kaptarxona", "Qumyaska", "Yangi turmush", "Kalta minor" va "Ichan Qal'a" mahallalaridagi aholi turar joylari, madaniy-tarixiy obidalar, strategik ahamiyatga ega bo'lgan ob'ektlar, ishlab chiqarish binolari, inshootlar va boshqa turdagi obyektlarga zarar yetkazayotgan termitlar tarqalishini oldini olish hamda ularga qarshi kurashishni yanada kuchaytirish" maqsadida 2022-yil 25-fevral 89-F-sonli Farmoyishi qabul qilindi.